O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Kurka go‘shti, tana va uning bo‘laklari

(UNECE StandardTurkey meat Carcases and Parts:2012, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar institute
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 14-sentabrdagi 32/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart UNECE StandardTurkey meat Carcases and Parts:2012 “Unece standarti kurka go‘shti tanalar va qismlari” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Minnatdorchiliklar

ЕИК ushbu nashrni ishlab chiqish jarayonida quyidagi delegatsiyalarning qo‘shgan hissasini e’tirof etadi: Avstraliya, Boliviya, Braziliya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Vengriya, Italiya, Litva, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Polsha, Rossiya Federatsiyasi, Slovakiya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Urugvay. GS1, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi Parranda go‘shtini qayta ishlovchilar va parranda savdosi assotsiatsiyasi (a.v.e.c.), shuningdek, Karib havzasi parranda assotsiatsiyasi vakillari ham ushbu nashrga hissa qo‘shgan. ЕИК, shuningdek, ushbu standartning loyiha versiyasi va fotosuratlarini tayyorlagan Avstraliya va Yangi Zelandiya delegatsiyalarining alohida hissasini ham e’tirof etadi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mundarija

1 Kirish 4
2. Minimal talablar 6
3. Xaridor tomonidan belgilanadigan talablar 7
4 Kurka go‘shti uchun xaridor talablariga oid ЕИК kodi 21
5. Kurka tanasi va qismlarining tavsifi 22
ILOVA I Qarang: www.unece.org/trade/agr/standard/meat/meat_e.html 50
ILOVA II 50
MANZILLAR Qarang: www.unece.org/trade/agr/standard/meat/meat_e.html

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Kurka go‘shti, tana va uning bo‘laklari

Мясо индейки тушки и части

UNECE StandardTurkey meat Carcses and Parts

Amalga kiritish sanasi: 14.11.2026-yil

1 Kirish

1.1 Go‘sht mahsulotlari uchun ЕИК standartlari

Go‘sht mahsulotlari uchun ЕИК standartlarining maqsadi xaridor va sotuvchi o‘rtasida foydalanish uchun xalqaro terminologiyani tavsiya etish orqali savdoni yengillashtirishdan iborat. Ushbu terminologiya xalqaro savdoda keng qo‘llaniladigan go‘sht mahsulotlarini tavsiflaydi hamda axborot almashish va elektron savdo uchun kodlash tizimini belgilaydi.

Mazkur matn muntazam ravishda yangilanib borilishi sababli, go‘sht sanoati vakillari qo‘shimcha mahsulot turlarini kiritish zarur deb hisoblasalar yoki mavjud mahsulot turlari noto‘g‘ri tavsiflangan, endilikda amalda qo‘llanilmaydigan yoki xalqaro savdoda muomalada bo‘lmay qolgan deb hisoblasa, ЕИК Kotibiyatiga murojaat qilishlari tavsiya etiladi.

Ushbu nashr matni ЕИКning Go‘shtni standartlashtirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan seksiyasi rahbarligida ishlab chiqilgan. U ЕИК tomonidan ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilishi rejalashtirilgan standartlar turkumining bir qismini tashkil etadi.

Quyidagi jadvalda ЕИК standartlari mavjud bo‘lgan yoki ishlab chiqilayotganhayvon turlari hamda ularga ЕИК go‘sht kodida (4-bo‘limga qarang) foydalanish uchun berilgan kodlar keltirilgan.

Qo‘shimcha ma’lumot uchun ЕИКning quyidagi rasmiy veb-saytiga tashrif buyuring:
www.unece.org/trade/agr/standard/meat/meat_e.html

II-ilova (qarang: www.unece.org/trade/agr) kodlash tizimining tavsifini o‘z ichiga oladi. Ushbu tavsifda ЕИК kodini amaliyotga joriy etish uchun mo‘ljallangan maxsus qo‘llash identifikatori ham keltirilgan.

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Go‘sht turi / hayvon turi	ЕИК hayvon turi kodi (1-ma’lumot maydoni)
Qoramol (mol go‘shti)	10
Qoramol (buzoq go‘shti)	11
Cho‘chqa (cho‘chqa go‘shti)	30
Qo‘y (qo‘y go‘shti)	40
Echki (echki go‘shti)	50
Lama	60
Alpaka	61
Tovuq	70
Kurka	71
O‘rdak	72
G‘oz	73
Quyon	74
Ot (ot go‘shti)	80
Kiyik	—
Iste’molga yaroqli go‘sht qo‘shimcha mahsulotlari	90
Chakana savdo uchun go‘sht bo‘laklari	91

1.2 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart inson iste’moli uchun yaroqli deb sotiladigan xom (ishlov berilmagan) (Meleagris gallopavo) kurka go‘shti va bo‘laklari (yoki qisimlari) uchun xalqaro atamani tavsiya etadi. Tarkibiga qo‘shimcha ingredientlar qo‘shilgan mahsulotlar yoki “kurka go‘shtidan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar” ushbu standart doirasiga kiritilmaydi.

Standart xaridorlarga xalqaro savdoda sotish uchun mo‘ljallangan go‘sht va go‘sht mahsulotlari bo‘yicha ilg‘or tijorat amaliyotiga muvofiq keladigan go‘sht bilan muomala qilish, qadoqlash va muvofiqlikni baholash bo‘yicha turli variantlarni taqdim etadi.

Kurka tanasi va bo‘laklarini xalqaro chegaralar orqali sotish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish hamda veterinariya nazoratining tegishli qonunchilik talablariga rioya qilinishi shart. Ushbu standart boshqa hujjatlarda tartibga solinadigan mazkur jihatlarni belgilashni maqsad qilmaydi. Standart davomida bunday qoidalar milliy yoki xalqaro qonunchilik yoxud import qiluvchi mamlakat talablariga havola qilingan.

Standartda jo‘natilgandan keyin mahsulot sifatini saqlash, shuningdek, oziq-ovqat gigiyenasi, markalash va ushbu standart doirasiga kirmaydigan boshqa masalalar bo‘yicha hukumatlarga yo‘l-yo‘riq berishga qaratilgan boshqa xalqaro kelishuvlar, standartlar va amaliyot kodekslariga havolalar keltirilgan.

Sog‘liqni saqlash va sanitariya talablariga oid xalqaro ma’lumotnoma sifatida Kodeks Alimentarius komissiyasining standartlari, qo‘llanmalari va amaliyot kodekslariga <www.codexalimentarius.net> murojaat qilish lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

1.3 Qo‘llanilishi

Pudratchilar shartnoma hamda texnik spetsifikatsiyalarda belgilangan barcha talablarga muvofiq mahsulotlarni yetkazib berish uchun mas’uldirlar va ushbu talablarga muvofiqlikni ta’minlashga qaratilgan sifat nazorati tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Mahsulotlarning ushbu batafsil talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida xaridorlar, mahsulotning xaridor tomonidan belgilangan talab va variantlarga muvofiqligini tekshirish uchun mustaqil va xolis uchinchi tomon xizmatlaridan foydalanishni tanlashlari mumkin.

Standart qoidalarni tushunishni osonlashtirish uchun tanlangan tijorat bo‘laklari/kesmalarining illyustrativ fotosuratlarini o‘z ichiga oladi.

1.4 Qabul qilinishi va nashr etilishi tarixi

Ixtisoslashtirilgan seksiyaning tavsiyasiga binoan, Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh mazkur matnni o‘zining 62-sessiyasida qabul qilgan (ma’lumotnoma: ECE/TRADE/C/WP.7/2007/26).

ЕИКning go‘sht mahsulotlari bo‘yicha standartlari nashr etilganidan so‘ng har uch yilda to‘liq qayta ko‘rib chiqiladi. Qayta ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, zarur hollarda standartning yangi tahrirlari nashr etiladi.

Zudlik bilan e’tibor qaratishni talab qiladigan o‘zgartirishlar ЕИКning quyidagi rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi:

www.unece.org/trade/agr/standards.html

2. Minimal talablar

Barcha go‘sht mahsulotlari oziq-ovqat xavfsizligi va inspeksiya (nazorat) bo‘yicha amaldagi talablarga muvofiq muntazam faoliyat yurituvchi so‘yish korxonalarida so‘yilgan hayvonlardan olinishi lozim.

Tana va uning bo‘laklari quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi kerak:

tashqi ko‘rinishini hisobga olgan holda, tana;

begona jismlardan (masalan, shisha, rezina, plastmassa, metall zarrachalari[1]) xoli bo‘lishi;

begona hidlardan xoli bo‘lishi;

najas bilan ifloslanmagan bo‘lishi;

ko‘zga ko‘rinadigan qon quyqalari bo‘lmagan;

ichki a’zolar, traxeya, qizilo‘ngach, voyaga yetgan reproduktiv a’zolar hamda o‘pkadan xoli bo‘lishi[2];

patlar va qon quyilishlaridan deyarli xoli bo‘lishi[3];

deyarli patlarsiz va qon oqish izlarisiz[4];

● o‘t (safro) sachragan dog‘lar yo‘q.[3].

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3. Xaridor tomonidan belgilanadigan talablar

Quyidagi kichik bo‘limlarda xaridor tomonidan belgilanishi mumkin bo‘lgan talablar hamda ЕИКning kurka go‘shti kodida (4-bo‘limga qarang) qo‘llaniladigan tegishli kodlar bayon etilgan. Kurka go‘shtini qadoqlash uchun ЕИК kodi 3.9-bo‘limda keltirilgan.

3.1 Qo‘shimcha talablar

Kodda nazarda tutilmagan (masalan, 9 — “boshqa” kodi qo‘llanilganda) yoki mahsulot yoxud qadoqlash tavsifiga qo‘shimcha aniqlik kiritadigan xaridor tomonidan belgilangan talablar xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishilishi hamda tegishli tarzda hujjatlashtirilishi lozim.

3.2 Hayvon turi

1.1-bo‘limda belgilanganidek, kurka uchun 1-ma’lumot maydonidagi hayvon turi kodi 71 hisoblanadi.

[1] Xaridor tomonidan belgilangan hollarda go‘sht mahsulotlari metall zarrachalarini aniqlash nazoratidan o‘tkaziladi.

[2] Agar mazkur a’zolar belgilangan mahsulotning ajralmas qismi bo‘lmasa.

[3] Bunga faqat sotuvchi tomonidan oldindan ma’lum qilingan, milliy qonunchilikda ruxsat etilgan hamda tanlangan sifat yoki nav talablariga muvofiq bo‘lgan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

[4] Muzlatish natijasida yuzaga keladigan sirt qurishi (freezer-burn) — mahsulot yuzasining qaytarib bo‘lmaydigan mahalliy yoki keng ko‘lamli suvsizlanishi bo‘lib, u mahsulotning asl rangining (odatda oqarishi) qisman yoki to‘liq o‘zgarishi va (yoki) taktil xususiyatlarining (quruq, g‘ovaksimon) o‘zgarishi bilan tavsiflanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.3 Mahsulot/ bo‘laklar

Ushbu hujjatda keltirilgan kurka go‘shti bo‘laklari faqat tavsiya sifatida taqdim etilgan. Go‘shtning turli bo‘laklari ushbu hujjat yangilanishi bilan zaruratga qarab qo‘shiladi yoki olib tashlanadi. Ushbu bo‘laklarning aksariyati bir nechta savdo nomlari ostida xalqaro miqyosda sotiladi. Muvofiqlashtirilgan kodifikasiya tizimidan foydalanish maqsadi (I ilovaga qarang) ushbu hujjatdan foydalanishni osonlashtiradi.

3.3.1 Mahsulot/ bo‘lak kodi

2-ma’lumot maydonidagi to‘rt xonali mahsulot kodi 5-bo‘limda belgilangan.

3.3.2 Suyak


Kurka tanalari va bo‘laklari suyak bo‘yicha quyidagicha farqlanadi:

Suyak kodi (3a-ma’lumot maydoni)	**Toifa**	**Tavsifi**
0	Belgilanmagan	Ko‘rsatilmagan.
1	Suyakli	Mahsulotdan hech qanday suyak olib tashlanmagan.
2	Qisman suyaksiz	Mahsulotdan suyaklarning bir qismi olib tashlangan, biroq barcha suyaklar emas.
3	Suyaksiz	Mahsulotdan barcha suyaklar olib tashlangan.
4–9	Kodlardan foydalanilmaydi	Ushbu kodlar qo‘llanilmaydi.

3.3.3 Teri

Kurka tanalari va bo‘laklari terining ko‘rinishi bo‘yicha quyidagicha farqlanadi:

Teri kodi (3b-ma’lumot maydoni)	**Toifa**	**Tavsifi**
0	Belgilanmagan	Ko‘rsatilmagan.
1	Terili	Mahsulot terisi bilan taqdim etiladi (1-rasm).
2	Terisiz	Mahsulotning barcha terisi olib tashlangan (2-rasm).
3–9	Kodlardan foydalanilmaydi	Ushbu kodlar qo‘llanilmaydi.



1-Rasm — Qovurg‘alari va qanotlari bilan suyakli butun ko‘krak qismi



2-Rasm — Suyaksiz, terisiz ko‘krak go‘shti

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.4 Sovitish

Mazkur standartda sovitish deganda oziq-ovqat mahsulotining ichki haroratini saqlash va mikrobiologik nazoratni ta’minlash maqsadida pasaytirish uchun qo‘llaniladigan usullar tushuniladi.

Kurka tana va bo‘laklari sovutilgan, konteynerga qadoqlangan muz bilan sovutilgan, konteynerga qadoqlangan quruq muz bilan sovutilgan, engil muzlatilgan, muzlatilgan, chuqur muzlatilgan, muz bilan sirlanmagan holda yakka (tez) chuqur muzlatilgan yoki muz bilan sirlangan holda yakka (tez) chuqur muzlatilgan holda taqdim etiladi.

Qo‘llanilgan sovitish usuliga qarab mahsulot massasining ruxsat etilgan chetlanishlari xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishilishi lozim.

Mahsulotning barcha qismlarida quyida belgilangan bir xil ichki harorat ta’minlanishi uchun ta’minot zanjirining barcha bosqichlarida atrof-muhit haroratining tegishli darajada saqlanishini ta’minlash operatorning mas’uliyati hisoblanadi.

Sovitish kodi (4-ma’lumot maydoni)	**Toifa**	**Tavsifi**
0	Belgilanmagan	Toifa belgilanmagan.
1	Sovitilgan	So‘yilgandan keyingi sovitish jarayonidan so‘ng mahsulotning ichki harorati doimo **–2,0 °C dan past bo‘lmagan** va **+4,0 °C dan yuqori bo‘lmagan** darajada saqlanadi.
2	Muz qo‘shilgan holda sovitilgan	So‘yilgandan keyingi sovitish jarayonidan so‘ng mahsulotning ichki harorati doimo **–2,0 °C dan past bo‘lmagan** va **+4,0 °C dan yuqori bo‘lmagan** darajada saqlanadi hamda mahsulot **muz (muzlatilgan suv, quruq muz emas)** solingan idishga (qadoqqa) joylanadi.
3	Quruq muz (CO_2) qo‘shilgan holda sovitilgan[5]	So‘yilgandan keyingi sovitish jarayonidan so‘ng mahsulotning ichki harorati doimo **–2,0 °C dan past bo‘lmagan** va **+4,0 °C dan yuqori bo‘lmagan** darajada saqlanadi hamda mahsulot **quruq muz (CO_2)** solingan idishga (qadoqqa) joylanadi.
4	Yengil muzlatilgan[6]	Muzlatilgandan keyin mahsulotning ichki harorati doimo **–12,0 °C dan past bo‘lmagan** va **–2,0 °C dan yuqori bo‘lmagan** darajada saqlanadi.
5	Muzlatilgan	Muzlatilgandan keyin mahsulotning ichki harorati doimo **–12 °C yoki undan past** darajada saqlanadi.
6	Chuqur muzlatilgan	Muzlatilgandan keyin mahsulotning ichki harorati doimo **–18 °C yoki undan past** darajada saqlanadi.
7	Muz sirlamasisiz alohida (tezkor) chuqur muzlatilgan	Mahsulot qadoqlashdan oldin alohida holda muzlatiladi va muzlatilgandan keyin uning ichki harorati doimo **–18 °C yoki undan past** darajada saqlanadi.
8	Muz sirlamasi bilan alohida (tezkor) chuqur muzlatilgan	Mahsulot qadoqlashdan oldin alohida holda muzlatiladi va muzlatilgandan keyin uning ichki harorati doimo **–18 °C yoki undan past** darajada saqlanadi. Muz sirlamasini hosil qilish usuli va markalashda qo‘llaniladigan atamalar xaridor hamda sotuvchi o‘rtasida kelishilishi lozim. Qo‘llanilgan usul va muz sirlamasi hisobiga mahsulot massasining ortishi mahsulot tavsifi yoki yorlig‘ida ko‘rsatilishi shart.
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa sovitish usullarini tavsiflash uchun qo‘llanilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan atamalarning ta’riflari import qiluvchi mamlakatning amaldagi qonunchiligiga muvofiq bo‘lishi lozim.

[6] Quruq muz mahsulot bilan bevosita kontaktda bo‘lmasligi kerak.

[7] Mazkur sovitish usuli faqat chakana savdo uchun mo‘ljallangan qisqa muddatli saqlashda qo‘llanilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #AE1ME10501 * 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

3.5 Ishlab chiqarish tarixi

3.5.1 Kuzatuvchanlik

Xaridor tomonidan belgilanishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish tarixiga oid talablar kuzatuvchanlik tizimlarining joriy etilishini talab qilishi mumkin.

Kuzatuvchanlik ishlab chiqarishning barcha tegishli bosqichlarida mahsulot yoki mahsulot to‘plarini tekshirish mumkin bo‘lgan usulda identifikatsiya qilishni ta’minlaydigan tizimni nazarda tutadi.

Kuzatuvchanlikka oid qaydlar bildirilayotgan da’volarni tasdiqlash imkonini berishi, shuningdek, qo‘llanilayotgan tartib-taomillarning muvofiqligi 3.8-bo‘limda keltirilgan muvofiqlikni baholash talablariga muvofiq sertifikatlangan bo‘lishi lozim.

3.5.2 Kurka toifasi

Xaridor kurkaning jinsi, vazn diapazoni yoki yoshini ifodalovchi toifani belgilashi mumkin.

Kurka toifasi kodi (5-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	Toifa belgilanmagan.
1	Juda yosh kurkalar (jinsi ajratilmagan)	Yoshi 4 oydan kichik bo‘lgan kurkalar.
2	Yosh kurkalar (jinsi ajratilmagan)	Yoshi 8 oydan kichik bo‘lgan kurkalar. To‘sh suyagining uchi egiluvchan bo‘ladi.
3	Yosh urg‘ochi kurkalar	Yoshi 8 oydan kichik bo‘lgan urg‘ochi kurkalar. To‘sh suyagining uchi egiluvchan bo‘ladi.
4	Yosh erkak kurkalar	Yoshi 8 oydan kichik bo‘lgan erkak kurkalar. To‘sh suyagining uchi egiluvchan bo‘ladi.
5	Voyaga yetgan kurkalar	To‘liq voyaga yetgan urg‘ochi va erkak kurkalar bo‘lib, odatda 8–15 oylik bo‘ladi.
6	Yetuk (nasldor) kurkalar	Yetuk urg‘ochi va erkak kurkalar bo‘lib, odatda 15 oydan katta bo‘ladi.
7	Yetuk (nasldor) urg‘ochi kurkalar	Yetuk urg‘ochi kurkalar bo‘lib, odatda 15 oydan katta bo‘ladi.
8	Yetuk (nasldor) erkak kurkalar	Yetuk erkak kurkalar bo‘lib, odatda 15 oydan katta bo‘ladi.
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan kurkaning boshqa toifalarini tavsiflash uchun qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan atamalarning ta’riflari import qiluvchi mamlakatning amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

3.5.3 Ishlab chiqarish tizimi

Xaridor ishlab chiqarish tizimini belgilashi mumkin. Har qanday holatda ham ishlab chiqarish import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Agar import qiluvchi mamlakatda bunday talablar mavjud bo‘lmasa, eksport qiluvchi mamlakatning amaldagi qonunchiligi qo‘llaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ishlab chiqarish tizimi kodi (6-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	Ishlab chiqarish tizimi belgilanmagan.
1	An’anaviy	Kurkalar isitiladigan va havo almashtiriladigan yoki yon tomonlari ochiq bo‘lgan bionalarda parvarish qilinadi.
2	Erkin oraliq 1	Kurkalar isitiladigan va havo almashtiriladigan yoki yon tomonlari ochiq bo‘lgan bionalarda hamda tashqariga chiqish imkoniyati mavjud bo‘lgan sharoitda parvarish qilinadi. Ozuqa tarkibida kamida 70% don bo‘lishi va kurkalar so‘yishdan oldin kamida 140 kunlik bo‘lishi kerak.
3	Erkin oraliq 2	Kurkalar isitiladigan va havo almashtiriladigan yoki yon tomonlari ochiq bo‘lgan bionalarda hamda tashqariga chiqish imkoniyati mavjud bo‘lgan sharoitda parvarish qilinadi.
4	Yaylovda/o‘tloqda boqilgan/	Kurkalar ochiq havoda, o‘t ustida joylashgan harakatlanuvchi panjaralar yordamida parvarish qilinadi.
5	Organik[7]	Import qiluvchi mamlakatning organik ishlab chiqarishga oid qonunchiligi talablariga muvofiq amalga oshiriladigan ishlab chiqarish usullari.
6–8	Kodlardan foydalanilmaydi	Ushbu kodlar qo‘llanilmaydi.
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa ishlab chiqarish tizimlarini tavsiflash uchun qo‘llaniladi.

[7] Organik ishlab chiqarish tizimlari o‘ziga xos oziqlantirish tizimlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli “organic” varianti oziqlantirish tizimi bo‘limida takroran keltirilmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Yuqorida keltirilgan atamalarning ta’riflari import qiluvchi mamlakatning amaldagi qonunchiligiga muvofiq bo‘lishi lozim.

3.5.4 Oziqlantirish tizimi

Xaridor oziqlantirish tizimini belgilashi mumkin.

Har qanday holatda ham oziqlantirish import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi lozim. Agar import qiluvchi mamlakatda bunday qonunchilik mavjud bo‘lmasa, oziqlantirish tizimi xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishiladi.

Oziqlantirish tizimi kodi (7-ma’lumot maydoni)	Tavsifi
00	Belgilanmagan
01	An’anaviy
02–09	Kodlardan foydalanilmaydi
10	FM qo‘llanilmagan
11	FM va IAO qo‘llanilmagan
12	FM, IAO va GP qo‘llanilmagan
13	FM, IAO, GP va GMO qo‘llanilmagan
14	FM va GP qo‘llanilmagan
15	FM, GP va GMO qo‘llanilmagan
16	FM va GMO qo‘llanilmagan
17–29	Kodlardan foydalanilmaydi
30	IAO qo‘llanilmagan
31	IAO va GP qo‘llanilmagan
32	IAO va GMO qo‘llanilmagan
33	IAO, GP va GMO qo‘llanilmagan
34–49	Kodlardan foydalanilmaydi
50	GP qo‘llanilmagan
51	GP va GMO qo‘llanilmagan
52–59	Kodlardan foydalanilmaydi
60	GMO qo‘llanilmagan
61–98	Kodlardan foydalanilmaydi
99	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa oziqlantirish tizimini tavsiflash uchun qo‘llaniladi.

FM free — Baliq unidan xoli.

IAO free — kelib chiqishi hayvonotga mansub ingredientlardan xoli.

GP free — O‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalardan xoli.*

GMO free — Genetik modifikatsiya qilingan organizmlardan (GMO) olingan mahsulotlardan xoli.

* O‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalar tarkibiga gormonlar yoki veterinariya shifokori tomonidan tavsiya etilgan me’yorlardan ortiq miqdorda qo‘llanilgan antibiotiklar kiradi.

STANDARTLAR INSTITUTI#FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Yuqorida keltirilgan atamalarning ta’riflari import qiluvchi mamlakatning amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

3.5.5 So‘yish tizimi

Xaridor so‘yish tizimini belgilashi mumkin.

Har qanday holatda ham so‘yish import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Agar import qiluvchi mamlakatda bunday qonunchilik mavjud bo‘lmasa, so‘yish tizimi xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishiladi.

So‘yish tizimi kodi (8-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	So‘yish tizimi belgilanmagan.
1	An’anaviy	Qon chiqarishdan oldin hushsizlantirish (karaxt holatga keltirish) amalga oshiriladi.
2	Kosher	Tegishli diniy marosim (kosher) talablariga muvofiq so‘yish tartib-taomillari qo‘llaniladi.
3	Halol	Tegishli diniy marosim (halol) talablariga muvofiq so‘yish tartib-taomillari qo‘llaniladi.
4–8	Kodlardan foydalanilmaydi	Ushbu kodlar qo‘llanilmaydi.
9	Boshqa	Qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa har qanday so‘yish usuli xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi lozim.

3.5.6 Sovitish tizimi

Xaridor quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan sovitish tizimlarini belgilashi mumkin.

Quyida keltirilgan sovitish tizimlari texnologik jihatdan oldini olib bo‘lmaydigan suvning ushlanib qolishi natijasida mahsulot massasining ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Agar mahsulot tarkibidagi suv miqdori import qiluvchi mamlakat qonunchiligida belgilangan texnologik me’yorlardan oshsa, mahsulot tavsifi yoki yorlig‘ida mahsulot tarkibidagi suvning foiz miqdori ko‘rsatilishi shart.

Agar import qiluvchi mamlakatda bunday qonunchilik mavjud bo‘lmasa, ushbu me’yorlar xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishilishi lozim.

Mahsulot tarkibidagi suv miqdorini aniqlashda qo‘llaniladigan usullar ham xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishilishi lozim.

Sovitish tizimi kodi (9-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	Sovitish tizimi belgilanmagan.
1	Suvga botirib sovitish (qo‘shimchalarsiz)	Mahsulot qarama-qarshi yo‘nalishda oqayotgan sovuq suv oqimi orqali sovitiladi.
2	Suvga botirib sovitish (qo‘shimchalar bilan)	Mahsulot mikroblarga qarshi vositalar qo‘shilgan qarama-qarshi yo‘nalishda oqayotgan sovuq suv oqimi orqali sovitiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Sovitish tizimi kodi (9-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
3	Havo bilan sovitish (qo‘shimchalarsiz)	Mahsulot sovuq havo yordamida sovitiladi.
4	Havo bilan sovitish (qo‘shimchalar bilan)	Mahsulot mikroblarga qarshi vositalar qo‘shilgan sovuq havo yordamida sovitiladi.
5	Havo-suv purkash orqali sovitish (qo‘shimchalar-siz)	Mahsulot mayda suv tomchilari purkalib turiladigan sovuq havo yordamida sovitiladi.
6	Havo-suv purkash orqali sovitish (qo‘shimchalar bilan)	Mahsulot mikroblarga qarshi vositalar qo‘shilgan mayda suv tomchilari purkalib turiladigan sovuq havo yordamida sovitiladi.
7–8	Kodlardan foydalanilmaydi	Ushbu kodlar qo‘llanilmaydi.
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa sovitish tizimini tavsiflash uchun qo‘llanilishi mumkin.

3.6 Sifat darajasi

3.6.1 Kodlarning ta’rifi

Tana go‘shti yoki uning bo‘laklarining sifat darajasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

Sifat darajasi kodi (11-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	**2-bo‘limda** belgilangan minimal talablar bajarilishi lozim.
1	1-sifat darajasi	Mahsulot eng yuqori sifat darajasi talablariga javob beradi.[8]
2	2-sifat darajasi	Mahsulot ikkinchi sifat darajasi talablariga javob beradi.[8]
3–8	Kodlardan foydalanilmaydi	Ushbu kodlar qo‘llanilmaydi.
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa sifat darajasi yoki sifat tizimi.

[8] Agar sifat darajasi qo‘llanilsa, u import qiluvchi mamlakatning tegishli qonunchiligi talablariga muvofiq bo‘lishi lozim. Agar bunday qonunchilik mavjud bo‘lmasa, sifat darajasining ta’rifi xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI#FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.7 Kurka go‘shti tana va bo‘laklarining sotuv birliklarida ko‘rsatilishi yoki biriktirilish kerak bo‘lgan tamg‘alash ma’lumotlari

Barcha tamg‘alash ma’lumotlari tekshiriluvchan bo‘lishi shart (shuningdek, 3.5.1-bandga qarang).

3.7.1 Majburiy ma’lumotlar

Import qiluvchi mamlakatlarning milliy talablariga zarar etkazmagan holda quyidagi ro‘yxatda qadoqlangan kurka go‘shti tana va bo‘laklaridagi mahsulot tamg‘alarida ko‘rsatilishi shart bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan:

Mahsulot nomi;

Sog‘liqni saqlash tamg‘asi (veterinariya nazorati tamg‘asi) yoki inspeksiya tamg‘asi;

Har bir mamlakat talablariga muvofiq sotish muddati yoki iste’mol qilishning oxirgi sanasi;

Saqlash sharoitlari, masalan: “XX °C da yoki undan past haroratda saqlansin”;

Qadoqlovchi, distribyutor yoki jo‘natuvchini aniqlash imkonini beruvchi tegishli ma’lumotlar;

Sof massa kilogrammlarda (kg) va zaruratga ko‘ra funtlarda (lb);

3.5.6-band talablariga muvofiq qo‘shimcha suvning foiz miqdori.

3.7.2 Mahsulotga oid boshqa ma’lumotlar

Import qiluvchi mamlakat qonunchiligi talablariga muvofiq, xaridorning talabi asosida yoki qayta ishlovchi korxona tanloviga ko‘ra mahsulot yorlig‘ida boshqa ma’lumotlar ham ko‘rsatilishi mumkin.

Bunday ma’lumotlar ko‘rsatilgan taqdirda, ular tekshirilishi mumkin bo‘lgan (verifikatsiya qilinadigan) bo‘lishi lozim (shuningdek, 3.5.1-bandga qarang).

Bunday ma’lumotlarga quyidagilar misol bo‘la oladi:

Tug‘ilgan mamlakati;

Parvarish qilingan (lar);

So‘yilgan mamlakati;

Qayta ishlangan/kesilgan mamlakat(lar);

Qadoqlangan mamlakat(lar);

Kelib chiqish mamlakati — ushbu standartda “kelib chiqish mamlakati” atamasi hayvonning tug‘ilishi, boqilishi, so‘yilishi, qayta ishlanishi hamda qadoqlanishi bir mamlakat hududida amalga oshirilgan holatni anglatish uchun qo‘llaniladi;

Ishlab chiqarish va oziqlantirish tizimlari;

Qayta ishlash yoki qadoqlash sanasi;

Sifat nav, tasnifi;

So‘yish tartib-taomillari;

Sovitish tizimi.

3.8 Muvofiqlikni baholash talablariga oid qoidalar

Xaridor mahsulotning sifati/navi/tasnifi, savdo standartida xaridor tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligi va hayvonni identifikatsiya qilish bo‘yicha uchinchi tomon tomonidan muvofiqlikni baholashni talab qilishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash quyidagi alohida yo‘nalishlar bo‘yicha yoki ularning kombinatsiyasi ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Sifat/tur/tasnif bo‘yicha muvofiqlikni baholash (sifat): uchinchi tomon mahsulotni tekshiradi va uning xaridor talab qilgan sifat darajasiga muvofiqligini tasdiqlaydi. Qo‘llaniladigan uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomi hamda sifat darajasi standarti 3.1-bandda ko‘rsatilgan tartibda belgilanishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #EETMS103TF - 25.11.2025 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Savdo standarti bo‘yicha muvofiqlikni baholash (savdo standarti): uchinchi tomon mahsulotni tekshiradi va uning ushbu savdo standartida belgilangan, xaridor tomonidan ko‘rsatilgan talablarga (sifat darajasidan tashqari) muvofiqligini tasdiqlaydi. Uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomi 3.1-bandda ko‘rsatilgan tartibda belgilanishi lozim. Zaruratga ko‘ra, xaridor sertifikatlashtirish organining nomidan keyin sertifikatlanishi lozim bo‘lgan aniq talablarni ham ko‘rsatishi mumkin.

Kurka yoki to‘p identifikatsiya qilish bo‘yicha muvofiqlikni baholash (kurka/to‘p identifikatsiyasi): uchinchi tomon mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi. Uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomi hamda qo‘llaniladigan talablar 3.1-bandda ko‘rsatilgan tartibda belgilanishi lozim.

Muvofiqlikni baholash kodi (14-ma’lumot maydoni)	**Tavsifi**
0	Belgilanmagan
1	Sifat/nav/tasnif bo‘yicha muvofiqlikni baholash
2	Savdo standarti bo‘yicha muvofiqlikni baholash
3	Kurka/to‘p identifikatsiyasi bo‘yicha muvofiqlikni baholash
4	Sifat va savdo standarti bo‘yicha muvofiqlikni baholash
5	Sifat va kurka/to‘p identifikatsiyasi bo‘yicha muvofiqlikni baholash
6	Savdo standarti va kurka/to‘p identifikatsiyasi bo‘yicha muvofiqlikni baholash
7	Sifat, savdo standarti va kurka/to‘p identifikatsiyasi bo‘yicha muvofiqlikni baholash
8	Koddan foydalanilmaydi
9	Boshqa

3.9 Qadoqlash, saqlash va tashishga oid qoidalar

Jo‘natishdan oldingi saqlash sharoitlari hamda tashishda foydalaniladigan transport vositalari kurka tana va bo‘laklarining fizik holati, ayniqsa ularning harorat holati (sovitilgan yoki muzlatilgan) uchun mos bo‘lishi hamda import qiluvchi mamlakatning amaldagi talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

Shuningdek, Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro tashish va bunday tashishlarda foydalaniladigan maxsus transport vositalari to‘g‘risidagi ЕИК Bitimi(ATP) (ECE/TRANS/165) qoidalariga rioya etish zarurligiga e’tibor qaratiladi.

Bo‘lak og‘irligi

Bo‘lak — mahsulot tavsifiga muvofiq butun kurka, bo‘laklarga ajratilgan kurka yoki kurkaning alohida qismi hisoblanadi. Bo‘lakni qadoqlash materiallarining og‘irligini o‘z ichiga olmasligi lozim.

Og‘irlik diapazoni ko‘rinishida ham ko‘rsatilishi mumkin. Bunday holda og‘irlik diapazonlarining ta’rifi, ularni qo‘llash tartibi hamda tekshirish usullari xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishilishi lozim.

Xaridor va sotuvchi mahsulotning har bir bo‘lak og‘irligini quyidagicha kelishib olishlari mumkin:

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Dona massasi kodi (P1-ma’lumot maydoni)	Toifa
0	Belgilanmagan
1	Massa diapazoni belgilangan
2	Aniq massa belgilangan
3–8	Kodlardan foydalanilmaydi
9	Boshqa

3.9.2 Birlamchi qadoqlash

Birlamchi qadoqlash mahsulot bilan bevosita aloqada bo‘ladigan qadoqlash bo‘lib, mahsulotni iste’molchi yoki institutsional foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan o‘lchamdagi birliklarga ajratish maqsadida qo‘llaniladi hamda tashish vaqtida transport qadog‘i ichiga joylashtiriladi.

Birlamchi qadoqlash ichiga bir yoki bir nechta dona mahsulot joylashtirilishi mumkin.

Birlamchi qadoqlash quyidagicha belgilanishi mumkin:

Birlamchi qadoqlash kodi (P2-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
00	Belgilanmagan	Birlamchi qadoqlash turi belgilanmagan.
01	Plastmassa qop	Mahsulotni o‘rash uchun mo‘ljallangan, egiluvchan plastmassa plyonkadan tayyorlangan va sanoatda qo‘llaniladigan usullar bilan yopiladigan qadoqlash. Qutining ichiga joylashtirilgan plastmassa qoplama (liner) birlamchi qadoqlash emas, balki transport (yuk) qadoqlashining bir qismi hisoblanadi.
02	Vakuumli plastmassa qop	Havosi vakuum yordamida chiqarib tashlangan va issiqlik yordamida germetik yopilgan, mahsulotga zich yopishadigan plastmassa qop yoki shunga o‘xshash materialdan tayyorlangan qadoqlash.
03	Qayta yopiladigan plastmassa qop	Bir necha bor ochish va qayta yopish imkonini beradigan qulflovchi (yopishtiruvchi) tizimga ega plastmassa qop yoki shunga o‘xshash materialdan tayyorlangan qadoqlash.
04	Modifikatsiyalangan gaz muhiti bilan plastmassa qop	Mahsulot sifatini saqlashga yordam berish maqsadida gaz bilan to‘ldirilgan va germetik yopilgan plastmassa qop yoki shunga o‘xshash materialdan tayyorlangan qadoqlash.
05	Porsiyalangan blister qadoq	Mahsulotning alohida katakchalarga bo‘lingan egiluvchan plastik yoki polietilen qadoq.

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Birlamchi qadoqlash kodi (P2-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
06	Taglikli qadoq (Tray pack)	Polistirol yoki shunga o‘xshash plastmassa materialdan tayyorlangan tekis tubli, taglik shaklidagi idish. Mahsulot taglikka joylashtiriladi va uni to‘liq o‘rab turadigan plastmassa plyonka bilan qoplanadi. Ortiqcha namlikni shimib olish uchun mahsulot ostiga namlikni yutuvchi taglik qo‘yilishi mumkin.
07	Modifikatsiyalangan gaz muhiti bilan taglikli qadoq	Polistirol yoki shunga o‘xshash plastmassa materialdan tayyorlangan sayoz, tekis tubli taglik. Mahsulot namlikni yutuvchi taglik ustiga joylashtiriladi, so‘ng taglik va mahsulot plastmassa plyonka bilan o‘raladi, qadoqqa gaz yuboriladi va mahsulot sifatini saqlashga yordam berish maqsadida germetik yopiladi.
08	Stakan yoki vanna ko‘rinishidagi idish	Qog‘oz, plastmassa yoki boshqa qattiq, suv o‘tkazmaydigan materialdan tayyorlangan, tekis tubli va qopqoq bilan yopiladigan idish.
09	Karton quti	Mahsulot joylashtiriladigan va keyinchalik transport qadoqlash idishi ichiga joylanadigan qog‘oz quti. Karton quti: **1)** mum shimdirilgan va (yoki) mum bilan qoplangan yuzaga ega bo‘lishi yoki **2)** plastmassa plyonka yoki boshqa polietilen qop bilan qoplangan bo‘lishi mumkin. Karton quti sanoatda qo‘llaniladigan usullar bilan yopiladi. Agar ushbu variant tanlansa, xaridor karton quti joylashtiriladigan transport qadoqlash idishining turini ham belgilashi lozim.
10–97	Kodlardan foydalanilmaydi	Ushbu kodlar qo‘llanilmaydi.
98	Qadoqlanmagan	Mahsulot iste’molchi yoki institutsional foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan birliklarga qadoqlanmaydi (masalan, mahsulot qayta foydalaniladigan plastmassa idish, ichki qoplamali quti yoki yirik hajmli konteynerga bevosita joylanadi).
99	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa birlamchi qadoqlash turi.

3.9.3 Iste’molchi uchun tamg‘alash

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Birlamchi qadoqlashning iste’molchi uchun mo‘ljallangan tamg‘alashni quyidagicha belgilanishi mumkin.

14-Jadval — Iste’molchi uchun tamg‘alash kodi (P3-ma’lumot maydoni)

Iste’molchi uchun tamg‘alash kodi (P3-ma’lumot maydoni)	Toifa/Tavsifi
0	**Belgilanmagan**
1	**Tamg‘alangan** — qadoqlarda iste’molchi uchun mo‘ljallangan yorliqlar bo‘lishi lozim. Yorliqlar belgilangan manzil (import qiluvchi) mamlakat talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.
2	**Tamg‘alashgan**
3–9	**Kodlardan foydalanilmaydi**

3.9.4 Birlamchi qadoqlashning massasi

Birlamchi qadoqlashning massasi 3.9.1-bandda belgilanganidek, qadoq ichidagi barcha mahsulot donalarining massalari yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

O‘g‘irlik diapazoni ko‘rinishida ham ko‘rsatilishi mumkin. Bunday holda o‘g‘irlik diapazonlarining ta’rifi, ularni qo‘llash tartibi hamda tekshirish usullari xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishilishi lozim.

Birlamchi qadoqlash massasi kodi (P4-ma’lumot maydoni)	Toifa/Tavsifi
0	Belgilanmagan
1	Massa diapazoni belgilangan
2	Aniq massa belgilangan
3–8	Kodlardan foydalanilmaydi
9	Boshqa

3.9.5 Ikkilamchi qadoqlash

Ikkilamchi qadoqlash mahsulotni tashish jarayonida himoya qilish va identifikatsiya qilish uchun qo‘llaniladi.

Ikkilamchi qadoqlash bir yoki bir nechta birlamchi qadoqlardan iborat bo‘ladi.

Ikkilamchi qadoqlash belgilangan manzil (import qiluvchi) mamlakat talablariga muvofiq markalangan bo‘lishi lozim.

Ikkilamchi qadoqlash quyidagicha belgilanishi mumkin:

Ikkilamchi qadoqlash kodi (P5-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	Ikkilamchi qadoqlash turi belgilanmagan.
1	Ichki qoplamasiz va mum bilan	Gofrokartondan tayyorlangan idish. Yopishqoq lenta, bog‘lash tasmalari yoki sanoatda qabul qilingan boshqa usullar bilan yopiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ikkilamchi qadoqlash kodi (P5-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
	qoplanmagan quti	
2	Ichki qoplamali va mum bilan qoplanmagan quti	Ichki qismi plastmassa plyonkali qop bilan qoplangan gofrokarton idish. Yopishqoq lenta, bog‘lash tasmalari yoki sanoatda qabul qilingan boshqa usullar bilan yopiladi.
3	Ichki qoplamasiz va mum bilan qoplangan quti	Suv o‘tkazmasligini ta’minlash maqsadida mum shimdirilgan va (yoki) mum bilan qoplangan gofrokarton quti. Yopishqoq lenta, bog‘lash tasmalari yoki sanoatda qabul qilingan boshqa usullar bilan yopiladi.
4	Qayta foydalaniladigan konteyner	Yetkazib berilgandan so‘ng qayta ishlovchi korxona tomonidan qaytarib olinadigan plastmassa yoki boshqa ruxsat etilgan materialdan tayyorlangan konteyner (yoki tashish qutisi).
5	Qaytarib olinmaydigan yirik konteyner	Yetkazib berilgandan so‘ng qayta ishlovchi korxona tomonidan qaytarib olinmaydigan yirik gofrokarton konteyner. U mum shimdirilgan yoki shimdirilmagan, shuningdek plastmassa plyonkali qop bilan qoplangan yoki qoplanmagan bo‘lishi mumkin.
6	Qayta foydalaniladigan yirik konteyner	Yetkazib berilgandan so‘ng qayta ishlovchi korxona tomonidan qaytarib olinadigan plastmassa yoki boshqa ruxsat etilgan materialdan tayyorlangan yirik konteyner.
7–8	Kodlardan foydalanilmaydi	Ushbu kodlar qo‘llanilmaydi.
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa ikkilamchi qadoqlash turi.

3.9.6 Ikkilamchi qadoqlash massasi

Ikkilamchi qadoqlash massasi kilogrammlarda, bitta o‘nlik kasr xonasi bilan besh xonali son ko‘rinishida (0000,0 kg) ko‘rsatiladi.

Ikkilamchi qadoqlash massasining ruxsat etilgan chetlanishlari va vazn diapazonlari 3.9.1-bandda belgilanganidek, xaridor va sotuvchi o‘rtasida o‘zaro kelishilishi lozim.

Ikkilamchi qadoqlash massasi kodi (P6-ma’lumot maydoni)	Toifa/Tavsifi
00000	Belgilanmagan

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM2105TF - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ikkilamchi qadoqlash massasi kodi (P6-ma’lumot maydoni)	Toifa/Tavsifi
00001–99999	Mahsulot massasini besh xonali formatda (**0000,0 kg**) ko‘rsating.

3.9.7 Kurka go‘shtini qadoqlash va transport qadoqlash kodining formati

Quyidagi jadvalda kurka go‘shtini qadoqlash va transport qadoqlashni tavsiflash uchun qo‘llaniladigan kodlash formatining umumiy tuzilishi keltirilgan.

Ma’lumot maydoni	Tavsifi	Bo‘lim	Kod diapazoni
P1	Dona massasi	**3.9.1**	**0–9**
P2	Birlamchi qadoqlash	**3.9.2**	**00–99**
P3	Birlamchi qadoqlashning iste’molchi uchun tamg‘alashi	**3.9.3**	**0–9**
P4	Birlamchi qadoqlash massasi	**3.9.4**	**0–9**
P5	Ikkilamchi qadoqlash	**3.9.5**	**0–9**
P6	Ikkilamchi qadoqlash massasi	**3.9.6**	**00000–99999**

4 Kurka go‘shti uchun xaridor talablariga oid ЕИК kodi

4.1 Kodning ta’rifi

Kurka go‘shti uchun xaridor talablariga oid ЕИК kodi 14 ta maydon va 20 ta raqamdan iborat bo‘lib, shundan 2 ta raqam foydalanilmaydi. Ushbu kod 3- va 5-bo‘limlarda belgilangan kodlarning kombinatsiyasidan tashkil topadi.

Maydon raqami	Nomi	Bo‘lim	Kod diapazoni
1	Hayvon turi	**3.2**	**00–99**
2	Mahsulot/bo‘lak	**5**	**0000–9999**
3a	Suyak	**3.3.2**	**0–9**
3b	Teri	**3.3.3**	**0–9**
4	Sovitish	**3.4**	**0–9**
5	Toifa	**3.5.2**	**0–9**
6	Ishlab chiqarish tizimi	**3.5.3**	**0–9**
7	Oziqlantirish tizimi	**3.5.4**	**00–99**
8	So‘yish tizimi	**3.5.5**	**0–9**
9	Sovitish tizimi	**3.5.6**	**0–9**
10	Mikroblarga qarshi ishlov berish	**3.5.7**	**0–9**
11	Sifat darajasi	**3.6**	**0–9**
12	Foydalanilmaydigan maydon	—	**0–9**

STANDARTLAR INSTITUTI #FETM210YT – 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

Maydon raqami	Nomi	Bo‘lim	Kod diapazoni
13	Foydalanilmaydigan maydon	**—**	**0–9**
14	Muvofiqlikni baholash	**3.8**	**0–9**

4.2 Misol

Quyidagi misolda ichki a’zolari bilan butun yosh kurka tasvirlangan. Mahsulot chuqur muzlatilgan, organik usulda yetishtirilgan va boqilgan, ozuqasida baliq uni qo‘llanilmagan, qo‘shimchalarsiz havo bilan sovitilgan hamda mikroblarga qarshi ishlov berilmagan. Kurka eng yuqori sifat darajasiga ega bo‘lib, uning sifat darajasi va savdo standarti bo‘yicha muvofiqligi xaridor tomonidan belgilangan kompaniya tomonidan sertifikatlanishi lozim.

Ushbu mahsulot uchun ЕИК kurka go‘shti kodi quyidagicha bo‘ladi: 71010111615100311004

Maydon raqami	Nomi	Talab	Qiymati
1	Hayvon turi	Kurka	**71**
2	Mahsulot/bo‘lak	Butun kurka	**0101**
3a	Suyak	Suyakli	**1**
3b	Teri	Terili	**1**
4	Sovitish	Chuqur muzlatilgan	**6**
5	Toifa	Yosh kurka (jinsi ko‘rsatilmagan)	**1**
6	Ishlab chiqarish tizimi	Organik	**5**
7	Oziqlantirish tizimi	Baliq unisiz	**10**
8	So‘yish tizimi	Belgilanmagan	**0**
9	Sovitish tizimi	Havo bilan sovitilgan (qo‘shimchalarsiz)	**3**
10	Mikroblarga qarshi ishlov berish	Mikroblarga qarshi ishlov berilmagan	**1**
11	Sifat darajasi	1-sifat darajasi	**1**
12	Foydalanilmaydigan maydon	—	**0**
13	Foydalanilmaydigan maydon	—	**0**
14	Muvofiqlikni baholash	Sifat va savdo standarti bo‘yicha mu-vofiqlikni baholash	**4**

5. Kurka tanasi va qismlarining tavsifi

Kod	Ruscha	O‘zbekcha	Inglizcha
0101	Тушка	Kurka tanasi	Whole bird
0102	Тушка без потрохов	Ichki a’zolarsiz kurka tanasi	Whole bird without giblets
0401	Задняя полутушка	Tananing orqa yarmi	Back half
0402	Задняя полутушка без гузки	Dumsiz tananing orqa yarmi	Back half without tail

STANDARTLAR INSTITUTI #EETM2105TE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OIShLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Kod	Ruscha	O‘zbekcha	Inglizcha
0601	Цельная грудка, необваленная, со спинкой, ребрами и крыльями (передняя полутушка)	Suyakli butun ko’krak qismi, orqa qismi, qovurg‘alari va qanotlari bilan (oldingi yarim tana)	Bone-in whole breast with back, ribs and wings (front half)
0602	Цельная грудка, необваленная, со спинкой, ребрами и плечевой частью крыльев	Suyakli butun ko’krak qismi, Orqa qismi, qovurg‘alari va qanotlarining yelka qismi bilan	Bone-in whole breast with back, ribs and first segment wings
0603	Цельная грудка, необваленная, со спинкой, ребрами и обваленным мясом плечевой части крыльев	Suyakli butun ko’krak qismi, orqa qismi, qovurg‘alari va qanotlarining yelka qismining ag‘darilgan go‘shti bilan	Bone-in whole breast with back, ribs and boneless first segment wing meat
0604	Цельная грудка, необваленная, со спинкой и ребрами	Suyakli butun ko’krak qismi, orqa qismi va qovurg‘alar bilan	Bone-in whole breast with back and ribs
0611	Цельная грудка, необваленная, без спинки с ребрами и крыльями	Suyakli butun ko'krak qismi, orqa qismsiz, qovug'a, qanotlarsiz	Bone-in whole breast without back, with ribs and wings
